



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 1-son

VOLUME 6 / ISSUE 1 / 2026
ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.1](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.1)

ISSN 2181-2179
DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ)





MUNDARIJA

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Sultonova Lobar Mamarayim qizi

EKSTRADITSIYANI JINOYAT-PROTSESSUAL TARTIBGA SOLISHDA
XALQARO KELISHUVLARNING ROLI 8

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

Gafurova Shoira Baxodirovna

XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLARNING MAQBULLIK VA
ISHONCHLILIK MEZONLARI21

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

Nuridinov Ramzidin Lutfidin o'g'li

DAVLAT XARIDLARINI RAQAMLASHTIRISH KORRUPSION XAVFLARNI
KAMAYTIRISH VOSITASI SIFATIDA33

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

Tillaboyev Shohruxbek Mirzatillo o'g'li

XALQARO HUQUQDA RAQAMLI INSON HUQUQLARI: HUQUQLARNING
YANGI AVLODI SHAKLLANISHI42

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. PROBATSIIYA FAOLIYATI

Islombekov Bexzodbek Islombekovich

METROPOLITEN OBYEKTLARIDA QOLDIRILGAN NARSA VA ASHYOLARNING
JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAHDIDI60

Normatova Shirin Abdulnabiyevna

TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN JABRLANGAN XOTIN-QIZLARNI
REABILITATSIYA QILISH TARTIBINING NAZARIY JIHATLARI68

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

Султонова Лобар Мамарайим кизи

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ СОГЛАШЕНИЙ В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОМ
РЕГУЛИРОВАНИИ ЭКСТРАДИЦИИ 8

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

Гафурова Шоира Баходировна

КРИТЕРИИ ДОПУСТИМОСТИ И ДОСТОВЕРНОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ
В МЕЖДУНАРОДНОМ УГОЛОВНОМ ПРАВЕ21

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

Нуридинов Рамзидин Лутфидин угли

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК КАК ИНСТРУМЕНТ
СНИЖЕНИЯ КОРРУПЦИОННЫХ РИСКОВ33

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

Тиллабоев Шохрухбек Мирзатилло угли

ЦИФРОВЫЕ ПРАВА ЧЕЛОВЕКА В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ:
СТАНОВЛЕНИЕ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ ПРАВ42

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Ислombeков Бехзодбек Ислombeкович

УГРОЗА ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ, СВЯЗАННАЯ С ОСТАВЛЕННЫМИ
ВЕЩАМИ И ПРЕДМЕТАМИ НА ОБЪЕКТАХ МЕТРОПОЛИТЕНА60

Норматова Ширин Абдулнабиевна

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОРЯДКА РЕАБИЛИТАЦИИ ЖЕНЩИН,
ПОСТРАДАВШИХ ОТ ПРИТЕСНЕНИЯ И НАСИЛИЯ68

CONTENTS

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS, FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

Sultonova Lobar Mamarayim kizi

THE ROLE OF INTERNATIONAL AGREEMENTS IN THE CRIMINAL
PROCEDURAL REGULATION OF EXTRADITION 8

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

Gafurova Shoira Bakhodirovna

CRITERIA FOR ADMISSIBILITY AND RELIABILITY OF EVIDENCE
IN INTERNATIONAL CRIMINAL LAW21

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEM

Nuridinov Ramzidin Lutfidin ugli

DIGITALIZATION OF PUBLIC PROCUREMENTS AS A TOOL FOR REDUCING
CORRUPTION RISKS33

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

Tillaboev Shohrukhbek Mirzatillo ugli

DIGITAL HUMAN RIGHTS IN INTERNATIONAL LAW:
THE FORMATION OF A NEW GENERATION OF RIGHTS42

12.00.14 – CRIME PREVENTION, ENSURING PUBLIC SAFETY, PROBATION ACTIVITY

Islombekov Bekhzodbek Islombekovich

THE THREAT OF ABANDONED ITEMS AND OBJECTS
TO PUBLIC SAFETY IN METROPOLITAN FACILITIES60

Normatova Shirin Abdulnabiyevna

THEORETICAL ASPECTS OF THE REHABILITATION PROCEDURE FOR
WOMEN VICTIMS OF HARASSMENT AND VIOLENCE68

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.02.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 23.02.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 17.03.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.6.1./SZCE4782>

UDC: 343.294(045)(575.1)

TAZIYQ VA ZO'RAVONLIKDAN JABRLANGAN XOTIN-QIZLARNI REABILITATSIYA QILISH TARTIBINING NAZARIY JIHATLARI

Normatova Shirin Abdulnabiyevna,

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-2493-5048>

e-mail: normatova@akadmvd.uz

Annotatsiya. *Ayollarga nisbatan zo'ravonlik va taziyq XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro hamjamiyatning diqqat-markazidagi muammoga aylandi. Bugun ushbu masala mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, jabrlanganlarni keng qamrovli ijtimoiy himoya qilish tizimiga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa sohaga oid qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni talab etadi. Maqolada shu maqsadda qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o'rganilgan, sohada faoliyat olib boruvchi subyektlar, shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi tahlil etilgan. "Reabilitatsiya" tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va tasnifi bilan bog'liq masalalar, jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilishning nazariy modellariga to'xtalib o'tilgan. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy metod, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Yakunda muallif ushbu tartibni takomillashtirishga oid tegishli taklif va tavsiyalarini ilgari surgan.*

Kalit so'zlar: *xotin-qizlar, zo'ravonlik, jabrlanuvchi, taziyq, tartib, reabilitatsiya, nazariy, kriminologiya, psixologiya*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОРЯДКА РЕАБИЛИТАЦИИ ЖЕНЩИН, ПОСТРАДАВШИХ ОТ ПРИТЕСНЕНИЯ И НАСИЛИЯ

Норматова Ширин Абдулнабиевна,

самостоятельный соискатель

Академии Министерства внутренних дел
Республики Узбекистан

Аннотация. *Вопрос насилия и притеснения в отношении женщин во второй половине XX века стал одной из проблем, находящихся в центре внимания международного сообщества. В настоящее время данная проблема в нашей стране поднята на уровень государственной политики, при этом особое внимание уделяется созданию системы комплексной социальной защиты пострадавших. Это, в свою очередь, требует совершенствования законодательства в данной сфере на основе международных стандартов. В статье с этой целью изучены нормы законодательства и научно-теоретические взгляды учёных-правоведов, а также проанализирована деятельность субъектов, осуществляющих деятельность в данной сфере, и опыт зарубежных государств. Рассматриваются вопросы, связанные с понятием «реабилитация», его сущностью, содержанием и классификацией, а также анализируются теоретические модели реабилитации пострадавших. В ходе исследования использованы сравнительно-правовой метод, а также методы анализа, синтеза, наблюдения, обобщения, индукции и дедукции. В заключение автором выдвинуты соответствующие предложения и рекомендации, направленные на совершенствование данного порядка.*

Ключевые слова: *женщины, насилие, пострадавшая, притеснение, порядок, реабилитация, теоретические аспекты, криминология, психология*

THEORETICAL ASPECTS OF THE REHABILITATION PROCEDURE FOR WOMEN VICTIMS OF HARASSMENT AND VIOLENCE

Normatova Shirin Abdulnabiyevna,
Independent Researcher of the Academy
of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *Violence and harassment against women became the focus of attention of the international community in the second half of the 20th century. Today, this issue has been elevated to the level of state policy in our country, and attention is being paid to a comprehensive system of social protection for victims. This requires the improvement of legislation in this area based on international standards. For this purpose, the article examines legislative norms and the scientific and theoretical views of legal scholars and analyzes the subjects operating in the field, as well as the experience of foreign countries. Issues related to the concept of “rehabilitation,” its essence and classification, and theoretical models of victim rehabilitation are addressed. The research used the comparative legal method, methods of analysis, synthesis, observation, generalization, induction, and deduction. In conclusion, the author put forward relevant proposals and recommendations for improving this procedure.*

Keywords: *women, violence, victim, harassment, order, rehabilitation, theoretical, criminology, psychology*

Kirish

Mamlakatimizda tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, nazariy jihatdan inson huquqlari va gender tenglikka, amaliy jihatdan esa keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimiga asoslanmoqda, bu borada keng islohotlar amalga oshirilmogda. Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan ayollarni reabilitatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, ushbu vazifalar sohaga oid qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni dolzarb qilib qo'yimoqda.

Jamiyatning har qanday taraqqiyoti davlat tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, xususan, eng zaif guruhlar – ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish bilan chambarchas bog'liq. Shu munosabat bilan tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish tartibi zamonaviy jinoyi-huquqiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Ushbu ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar, genderga asoslangan zo'rvonlik nazariyalari va ijtimoiy xizmat konsepsiyalaridan olingan umumiy tamoyillarga asoslanadi.

Mamlakatimiz kriminolog olimlaridan Z.S. Zaripov, Q.R. Abdurasulova, A.G. Zokirova, I. Ismailov, S.N. Gordeyev, M.A. Radjabova, F.M. Muxitdinov, B.A. Saidov, A.M. Musayev, S.S. Niyozova, M.M. Qalandarov, K.P. Payzullayev, J.S. Muxtorov, F.S. Qarshiyev, B.A. Umirzakov, J.X. Xamidov, S.B. Xo'jaqulov, M.Q. O'razaliyev, I.Y. Fazilov, R. Kabulov, Y.M. Karaketov, A.X. Muhitdinov, M.X. Rustamboyev, M.A. Rajabova, F. Toxirov, M. Usmonaliyev, Sh.A. G'aniyevlar tomonidan tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan ayollarni reabilitatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan. Biroq Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida sud-huquq sohasidagi islohotlar natijalari, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan ayollarni reabilitatsiya qilishning nazariy va amaliy muammolari amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti, xalqaro huquq normalari hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida kompleks tadqiq etilmagan.

Ayollarga nisbatan zo'rvonlik muammosi, konseptual yondashuvlar va nazariy asoslar ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish tartibining nazariy jihatlariga oid qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari hamda qiyosiy-huquqiy metod, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Asosiy qism

Ayollarga nisbatan zo'rvonlik va tazyiq muammosi XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro hamjamiyatning diqqat markazida bo'lgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1993-yilgi Deklaratsiyasida ayollarga nisbatan zo'rvonlik "ayollarga jismoniy, jinsiy yoki psixologik zarar yetkazadigan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan gender asosidagi zo'rvonlik harakatlari, shuningdek, bunday harakatlar bilan tahdid qilish, majburlash yoki ixtiyoriy erkinlikdan mahrum qilish" (United Nations General Assembly, 1993), deb ta'riflangan.

Zamonaviy kriminologik adabiyotda ayollarga nisbatan zo'rvonlik va tazyiqni tushuntiruvchi bir qator nazariy konsepsiyalar mavjud. Birinchi guruh nazariyalar – feministik yondashuv – patriarxal jamiyat tuzilmasi va gender tengsizligini asosiy sabab sifatida ko'rsatadi. L. Kelli, Dj. Radfordning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, ayollarga nisbatan zo'rvonlik alohida hodisa emas, balki ijtimoiy nazorat tizimining strukturaviy elementidir (Kelly & Radford, 1990).

Ikkinchi guruh – psixologik nazariyalar – zo'rvonlik siklini (L. Uolker tomonidan ishlab chiqilgan) va jabrlanuvchilar psixologiyasini o'rganadi (Walker, 2009). Uchinchi yo'nalish – integrativ-kompleks yondashuv – zo'rvonlikning ko'p omilli tabiatini (individual, oilaviy, jamoat va ijtimoiy omillar) e'tirof etadi va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qo'llanadi (WHO, 2021).

Rossiya kriminologi D.A. Shestakov ayollarga nisbatan zo'rvonlikni "Oila kriminologiyasi" doirasida o'rgangan va oilaviy zo'rvonlikning jinoiy xulqni shakllantirishdagi rolini ko'rsatgan (Shestakov, 2003).

Germaniya olimi X.Y. Shnayder viktimologik konsepsiyasida jabrlanuvchi va jinoyatchi o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir jarayonlarini tahlil qilgan (Schneider, 2001). Bu nazariy asoslar reabilitatsiya tartiblarini ishlab chiqishda fundamental ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida ayollarga nisbatan zo'rvonlik muammosi madaniy-milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda o'rganilishi kerak. Professor S.X. Shamsiyeva bu borada shunday ta'kidlaydi: "Milliy madaniyatimizdagi ayollarning ijtimoiy rolini to'g'ri baholash, ularning huquqlarini ta'minlash zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir (Shamsiyeva, 2020).

Sh.E. Ergashevning ishlarida oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolar va ularning kriminogen oqibatlari keng yoritilgan (Ergashev, 2018).

Reabilitatsiya tushunchasi: mazmun-mohiyati va tasnifiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, reabilitatsiya termini lotincha "*rehabilitatio*" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "qayta tiklash", "avvalgi holatga qaytarish" ma'nosini anglatadi. Jinoiy-huquqiy ma'noda reabilitatsiya ikki asosiy ma'noda qo'llanadi: birinchidan, asossiz ayblangan shaxslarning huquqiy holatini tiklash (yuridik reabilitatsiya); ikkinchidan, jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilish (ijtimoiy reabilitatsiya).

Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan ayollarni reabilitatsiya qilish uchunchi, maxsus turini tashkil etadi – jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilish (*victim rehabilitation*).

Ilmiy adabiyotlarda reabilitatsiya – shaxsning buzilgan psixologik, ijtimoiy, huquqiy va jismoniy holatini tiklashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi sifatida talqin etiladi. Zo'rvonlik qurbonlari bilan ishlashda reabilitatsiya inson huquqlari, gender tengligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayanadi.

Jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilish bo'yicha xalqaro amaliyotda kompleks yondashuv shakllangan. Yevropa Kengashining "Jinoyat jabrlanuvchilarining holati to'g'risida"gi (1985) tavsiyanomasida jabrlanuvchilarga psixologik, ijtimoiy, tibbiy va huquqiy yordam ko'rsatish zarurligi belgilangan (European Committee on Crime Problems, 1985).

BMTning 1985-yilgi “Adliya jabrlanuvchilar va hokimiyatdan suiiste’mol qilish jabrlanuvchilari uchun” Deklaratsiyasida reabilitatsiyaning to’rt asosiy yo’nalishi aniqlangan (United Nations General Assembly, 1985).

Zamonaviy ilmiy adabiyotda reabilitatsiya jarayonining quyidagi komponentlari ajratib ko’rsatiladi:

1. Psixologik reabilitatsiya – jarohatdan keyingi tushkunlik holatini (PTSD) davolash, o’zini o’zi qadrlashni tiklash, psixoemotsional barqarorlikka erishish (Herman, 2015).

Amerikalik psixolog J. Herman o’z tadqiqotida psixologik jarohatning tiklanishini uchta asosiy bosqichdan iboratligini ta’kidlaydi. Bularga xavfsizlikni ta’minlash, xotirani qayta ishlash va jabrlanuvchini jamiyatga qayta integratsiyalash kiradi (Herman, 1992).

2. Tibbiy reabilitatsiya – jismoniy shikastlanishlarni davolash, reproduktiv sog’liqni tiklash, uzoq muddatli tibbiy kuzatuv. JST ma’lumotlariga ko’ra, jabrlangan ayollarning 70 foizdan ortig’ida turli darajadagi jismoniy shikastlanishlar va 85 foizida psixosomatik kasalliklar qayd etiladi (WHO, 2013).

3. Ijtimoiy reabilitatsiya – ijtimoiy aloqalarni tiklash, mehnat ko’nikmalarini rivojlantirish, iqtisodiy mustaqillikka erishish. Sotsiolog P. Burdyoning Ijtimoiy kapital konsepsiyasidan kelib chiqib, jabrlangan ayollarning ijtimoiy tarmoqlarini qayta qurish reabilitatsiya jarayonining muhim qismidir (Bourdieu, 1986).

4. Huquqiy reabilitatsiya – huquqiy himoya mexanizmlariga kirish, adliya jarayonlarida ishtirok etish huquqini ta’minlash, kompensatsiya olish. Yevropa Inson huquqlari sudi amaliyotida jabrlanuvchilarning effektiv tergov va adolatli sudlovga bo’lgan huquqi konvensiyaning ajralmas qismi sifatida talqin etiladi (ECHR, 2009).

Tazyiq va zo’ravonlikdan jabrlangan ayollarni reabilitatsiya qilish tartibining ilmiy va nazariy jihatlariga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, reabilitatsiya va moslashtirish markazlari faoliyatining asosini tashkil etadigan bosh tamoyillar xizmat ko’rsatuvchi sohalar uchun asosiy qadriyat hisoblanadi.

Reabilitatsiya – bu jabrlangan ayollar hayotini qayta tiklash, ularni ijtimoiy, psixologik va huquqiy jihatdan qo’llab-quvvatlash jarayonidir.

Tazyiq va zo’ravonlikdan jabrlangan ayollarni reabilitatsiya qilish – bu nazariy jihatdan jarohat olish, gender, ijtimoiy ish va qonunchilik bilan bog’liq integratsiyalangan protsessdir. Uning maqsadi jabrlangan shaxslarga xavfsizlik, psixologik tiklanish, huquqiy himoya va ijtimoiy mustaqillikni qayta tiklashdir. Reabilitatsiya nazariy jihatdan jamiyat, institutlar va shaxsiy tajribani hisobga oladigan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Reabilitatsiya – tazyiq va zo’ravonlikdan jabrlangan ayollarning ichki holatini barqarorlashtirish, jamiyatga moslashishi, huquqiy va ijtimoiy holatini mustahkamlashga qaratilgan tizimli choralar majmuasidir.

Bu jarayonda quyidagi bosh vazifalar belgilanadi:

Jismoniy va ruhiy tiklanish: jabrlangan shaxslarning jarohat ta’siridan forig’ bo’lishi uchun ruhiy yordam, davolash va himoya choralari ko’riladi.

Ijtimoiy tiklanish: o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash, mehnatda bo'lg'usi ko'nikmalar, ijtimoiy faoliyatni tiklashga ko'maklashadi.

Huquqiy qo'llab-quvvatlash: yuridik maslahat, himoya orderini rasmiylashtirish va sudda huquqlarini himoya qilish bo'yicha yordam ko'rsatiladi.

Bu jarayonning maqsadi jabrlanuvchi ayolni faqat sovuqlikda saqlash emas, balki uning shaxsiy erkinligi, xavfsizligi va jamiyat bilan to'liq integratsiyasini ta'minlashdir.

Reabilitatsiya – bu nafaqat xavfsiz joy topish, balki ruhiy tiklanish, huquqiy mustahkamlash va ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydigan kompleks jarayondir. U ilmiy asosga ega bo'lib, ruhiy, huquqiy va ijtimoiy nazariy jihatlar bilan bog'langan holda amalga oshiriladi.

Ilmiy nazariy asoslarga ko'ra, quyidagicha tartiblash mumkin:

1. Psixologik nazariyalar, bunda ilmiy tadqiqotlar zo'ravonlik va uning oqibatlari ruhiy jarayonlar bilan chuqur bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Masalan, oilaviy-mayishiy zo'ravonlik qurbonlarida jismoniy jarohatlar bilan birga tushkunlik, ruhiyatning buzilishi va turli psixosomatik asoratlar uyg'unlashgan holda kuzatilishi mumkin.

Ushbu holatlar uzoq muddatli davolash va ruhiy qo'llab-quvvatlashni talab qiladi – bu reabilitatsiyaning asosiy yo'nalishidir.

2. Ijtimoiy nazariyalar, bunda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'i (oila, mahalla, do'stlar) – reabilitatsiyaning muhim qismi hisoblanadi. Shaxslar jamiyat bilan aloqalarini tiklash orqali o'zlarini himoya va mustaqil his qila boshlaydilar – bu yuqori samarali reabilitatsiya modellaridan biridir. Ilmiy adabiyotlarda “qo'llab-quvvatlash tarmog'i” tushunchasi ana shu jarayonni ifoda etadi.

3. Iqtisodiy va huquqiy nazariy jihat, bunda huquqiy nazorat va ijtimoiy dastaklar zarur bo'lib, jabrlanuvchi shaxsning huquqlari va huquqiy muhofazasi kafolatlanadi. Ushbu jamoatchilik nazariyalariga ko'ra, barqaror reabilitatsiya uchun huquqiy mexanizmlar muhimdir.

O'zbekistonda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan ayollar bilan ishlashda quyidagi tartiblar amalga oshiriladi:

– muomala va dastlabki qadamlar, bularga: Murojaat – “102” telefoni yoki “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali xabar qilinadi;

– himoya orderi – ayollar uchun himoya orderini rasmiylashtirish tizimi mavjud. Bu zo'ravon shaxs bilan aloqani cheklaydi, xavfsizlikni ta'minlaydi;

– reabilitatsiya vositalari, ya'ni vaqtinchalik boshpanalar: reabilitatsiya markazlarida shelterlar tashkil etilgan. Bu joylar jabrlangan ayollarga xavfsiz panohgoh va qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi;

– psixologik va ijtimoiy xizmatlar: shifoxona, psixologik maslahat, yuridik yordam, ijtimoiy ko'nikmalar ko'rsatiladi;

– haqiqiy monitoring: kelgusida reyestrlar yuritilib, profilaktik choralar ham joriy etiladi.

Rossiyalik olim Y.B. Mizulinaning tasnifiga ko'ra, reabilitatsiya choralari uch asosiy davrga bo'linadi: dastlabki inqirozli aralashuv (48–72 soat ichida), o'rta muddatli

reabilitatsiya (3–6 oy) va uzoq muddatli ijtimoiylashuv (6 oydan 2 yilgacha) (Mizulina, 2006). Germaniya tajribasida to'rt bosqichli model qo'llanadi: shoshilinch yordam, barqarorlashtirish, integratsiya va o'zini o'zi rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash (BMFSFJ, 2020).

Jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilishning nazariy modellariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, xalqaro amaliyotda jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilishning turli nazariy modellari ishlab chiqilgan. Quyida asosiy yo'nalishlarni ko'rib chiqamiz:

1. Jarohatga asoslangan yondashuv (*Trauma-Informed Approach*). Bu model amerikalik psixolog Dj. Garrising ishlarida keng rivojlangan va jabrlanuvchining xulqini jarohatning ko'rinishlari deb talqin etishga asoslanadi (Harris & Falot, 2001).

Yondashuvning asosiy tamoyillari: xavfsizlik, ishonchlilik, hamkorlik, haqiqatning kuchi (*empowerment*) va madaniy sezgirlik. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi "Jarohat va adolat" milliy instituti ma'lumotlariga ko'ra, ushbu yondashuvni qo'llash jabrlanuvchilarning psixologik holatini 65 foizga yaxshilagan (National Center on Domestic Violence, Trauma & Mental Health, 2018).

2. Tiklovchi adolat modeli (*Restorative Justice Model*). Bu konsepsiya Yangi Zelandiya va Kanadadan kelib chiqqan bo'lib, jabrlanuvchi, jinoyatchi va jamoat o'rtasidagi dialogga asoslanadi (Zehr, 2002).

Professor X. Zerning ta'rifiga ko'ra, tiklovchi adolat "zararni tiklashga, javobgarlikni qo'llashga va barcha tomonlarni jalb etishga yo'naltirilgan jarayon"dir (Zehr, 2015). Biroq ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarida bu modelni qo'llash qator cheklolarga ega – jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlash murakkablashadi.

3. Kompleks psixo-sotsial model. Rossiya psixologi N.V. Tarabrinaning ishlariga asoslanib, ushbu model psixologik terapiya va ijtimoiy yordamni integratsiyalashtiradi (Tarabrina, 2009).

Model quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: individual psixoterapiya (kognitiv-bixevioral terapiya, EMDR), guruhli mashg'ulotlar, oilaviy maslahat, kasb-hunar tayyorgarligi va huquqiy yordam. Moskvadagi "Opa-singillar" markazida bu modelni qo'llash natijasida jabrlangan ayollarning 78 foizi mustaqil hayot qurishga muvaffaq bo'lgan ("Sisters" Crisis Center, 2022).

4. Feministik kuch berish modeli (*Feminist Empowerment Model*). Bu yondashuv ayollarning agentlik qobiliyatini (*agency*) tiklash va o'z hayoti ustidan nazoratni qaytarishga yo'naltirilgan (Yllo & Bograd, 1988).

Amerika sotsiologi P. Illoning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, jabrlangan ayollarning iqtisodiy mustaqillikka erishishi qayta zo'ravonlikka uchrash xavfini 60 foizga kamaytiradi (Yllo, 1993). Bu model Skandinaviya mamlakatlarida keng qo'llanadi va davlat tomonidan moliyaviy yordam, kasb-hunar o'qitish va bepul huquqiy xizmatlarni ta'minlashni o'z ichiga oladi (Eriksson, 2011).

5. Madaniyatning sezgir modeli (*Culturally Sensitive Model*). Ayollarning ijtimoiy rollari, oilaviy qadriyatlar va zo'ravonlikka munosabat turli madaniyatlarda turlicha bo'lganligi sababli, reabilitatsiya harakatlarida madaniy kontekst hisobga olinishi lozim.

Hindistonlik olim L. Das bu borada shunday ta'kidlaydi: "G'arb psixologik modellarini tanqidsiz qo'llash rivojlanayotgan mamlakatlarda samarasiz bo'lishi

mumkin” (Das, 2019). Bu jihat O‘zbekiston uchun juda muhim – reabilitatsiya dasturlari milliy mentalitetlik, din va an‘analarni hurmat qilishi shart.

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning kriminogen oqibatlarini ham bugungi kunda o‘rganish va oldini olishning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tashkil etilgan bo‘lib, uning maqsadi mahalla darajasida aholining ehtiyojmand qatlamlariga kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va yordam berishdan iborat.

“Inson” markazlari og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslar va oilalarga har tomonlama yordam ko‘rsatadi, odamlarning og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolishining oldini olishga ko‘maklashadi.

Markaz xodimlari ijtimoiy himoyani tashkil etish va aholining muammolarini mahalla darajasida hal etish, ijtimoiy himoyaning manzilliligi va samaradorligini oshirish, ehtiyojmand aholining ijtimoiylashuviga ko‘maklashishi shart.

Shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan shaxslar bilan ishlaydi, tazyiqqa uchragan xotin-qizlar, keksalar va voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatadi.

Xususan, O‘zbekistonda firibgarlik sodir etgan ayollarning 41 foizi o‘tmishda ruhiy bosimga uchragan, 23 foizi iqtisodiy qaramlikda yashagan. Bu ma‘lumotlar erta aralashuv va reabilitatsiya choralarini amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Demak, jabrlangan ayollarni samarali reabilitatsiya qilish nafaqat ularning huquqlarini tiklaydi, balki kelgusida jinoiy xatti-harakatlarning oldini olish vositasi bo‘lib ham hisoblanadi. Bu viktimologik prevensiyaning bir turi – “ikkilamchi viktimizatsiyaning oldini olish”, deb ataladi (Xakimova, 2022).

O‘zbekistonda “Saxovat” ijtimoiy tashkiloti tomonidan 2021–2022-yillarda 156 nafar jabrlangan ayollar bilan o‘tkazilgan tajriba-sinov monitoringi aholi punktlari o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatdi. Toshkent shahrida har tomonlama yordam olgan ayollarning 64 foizi ijtimoiy hayotga qaytgan bo‘lsa, viloyatlarda esa bu ko‘rsatkich atigi 41 foizni tashkil etdi (Saxovat JSC, 2023). Bu mintaqaviy infratuzilmaning yetishmasligi va mahalliy madaniy omillarning ta‘sirini ko‘rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maxsus ko‘rsatmalar ushbu qadriyatlarga asoslanishi va gender asosidagi zo‘ravonlikka munosabat, xatti-harakatlar, tizimlar va siyosatni aks ettiradigan axloqiy asos bo‘lib xizmat qilishi lozim. Jumladan:

- jabrlanuvchilarning qadr-qimmatini himoya qilish asosiy vazifa bo‘lishi;
- jabrlanuvchining manfaatlari tashkilot manfaatlari ustun turishi;
- “Ziyon yetkazmaslik” tamoyiliga rioya qilish – jabrlanuvchini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan harakatlar jabrlanuvchi uchun xavfni oshirmasligi;
- zo‘ravonlik qurbonlarining hayoti va sog‘lig‘iga taalluqli barcha qarorlarda ishtirok etishi kerak.

Jabrlanuvchiga bo‘lgan hurmat quyidagilar orqali ta‘minlanishi:

- maxfiylikni saqlash;
- mustaqil qaror qabul qilish imkonini berish;
- maxfiylik/sirlilikni ta‘minlash;

- xabar qilingan tarzda jabrlanuvchilarning roziligini olish;
- ular bilan ishlashda jinsi, millati, yoshi, dini va / yoki kasbiga nisbatan kamsitish holatlariga yo'l qo'yilmasligi;
- jabrlanuvchilarning sifatli xizmatdan foydalanish huquqi ular bilan ishlaydigan barcha tashkilotlarning ustuvor vazifasi bo'lishi;
- manfaatlar to'qnashuvi holatlarida jabrlanuvchilarning himoyasi va salomatligi ustun turishi;
- kechiktirib bo'lmaydigan ishlar darhol ko'rib chiqilishi;
- qisqa muddatli tibbiy, huquqiy, ijtimoiy va psixologik (birinchi shoshilinch yordam), shuningdek, tegishli organlar va mutaxassislariga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatilishi (reabilitatsiya) lozim.

Xizmat ko'rsatishning quyidagi jihatlarini yodda tutish zarur: mavjudlik; muhimlik; qulaylik.

Genderga asoslangan zo'ravonlik inson asosiy huquqlarining buzilishi deb tan olinishi kerak (Abulxasan et al., 2021).

Reabilitatsiya va moslashtirish markazi – bu zo'ravonlik qurbonlariga reabilitatsiya, moslashish va o'z joniga qasd qilishning oldini olish bo'yicha yordam ko'rsatadigan markaz.

“Zo'ravonlik jabrlanuvchilari uchun reabilitatsiya markazi – og'ir turmush sharoitida bo'lgan xotin-qizlarga (va ularning farzandlariga), shu jumladan, turli shakllardagi gender zo'ravonlikka duchor bo'lganlar yoki zo'ravonlik ostiga tushish xavfi yuqori bo'lgan shaxslarga har tomonlama yordam ko'rsatishga mo'ljallangan davlat yoki xususiy muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari”dir.

Alohida shaxslar bilan amalga oshiriladigan barcha harakatlarning asosini tashkil etuvchi tamoyillar quyidagilardan iborat: jabrlanuvchi(lar)/zo'ravonlikni boshidan kechirgan shaxslarning jismoniy xavfsizligini ta'minlash; maxfiylik kafolati; jabrlanuvchi(lar)/zo'ravonlikni boshidan kechirgan shaxslarning xohish-istaklari, huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish hamda jinsiy va gender zo'ravonlikning oldini olish yoki unga qarshi kurashish uchun eng maqbul harakat yo'nalishi haqidagi har qanday qarorda bolaning manfaatlarini hisobga olish.

Jabrlanuvchi Reabilitatsiya va moslashtirish markazida bo'lgan paytda o'zining va oilasining xavfsizligini ta'minlash masalasi ko'rib chiqiladi.

Jabrlanuvchi Reabilitatsiya va moslashtirish markazida bo'lgan paytda u va oila a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini hurmat qilish lozim. Agar jabrlanuvchi xabardor holdagi roziligini bersa, ishni boshqa muassasalarga qayta yo'naltirayotganda jabrlanuvchiga yordam berish maqsadida faqat tegishli va muhim ma'lumotlarni o'zga shaxslar bilan baham ko'rish hamda jabrlanuvchilar to'g'risidagi barcha yozma ma'lumotlar xavfsiz joyda saqlanishi kerak.

Agar jabrlanuvchi ayol bo'lsa, ayol xodimlar muntazam ravishda suhbatlar va tekshiruvlar o'tkazishlari (maxfiy ravishda uning iltimosiga ko'ra) maqsadga muvofiqdir.

Bir necha bor o'tkazilgan suhbatlarda jabrlanuvchidan voqeani takrorlashni talab qilish kerak emas.

Reabilitatsiya va moslashuv markazidagi mijozlarni boshqarish algoritmiga kelsak, jabrlanuvchilar quyidagi yo'llar bilan kelishi mumkin:

– jabrlanuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa muassasalarni chetlab o'tib, o'zi murojaat qilsa;

– 1169 ishonch telefoniga murojaat qilish orqali (Toshkent shahrida);

(1146 ishonch telefoni – O'zbekistonda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga 24/7 rejimida psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan qisqa raqamli aloqa xizmati bo'lib, unda malakali mutaxassislar maslahat beradi, muammolarni hal qilishda yordam beradi va shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi).

– xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar (mahalla qo'mitalari orqali) va/yoki mahalla maslahatchilari orqali;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan berilgan yo'llanma bo'yicha;

– sog'liqni saqlash organlari tomonidan berilgan yo'llanma bo'yicha;

– ijtimoiy tarmoqlar orqali;

– boshqa tashkilotlar tomonidan hamkorlik yo'li bilan.

Agar shaxs o'z ixtiyori bilan Reabilitatsiya va moslashtirish markaziga kelsa, quyidagi barcha mezonlar qo'llanadi:

– zo'ravonlikka uchragan shaxslar;

– ularning voyaga yetmagan farzandlari (18 yosh);

– odam savdosiga va qullikka solishga duchor bo'lgan shaxslar;

– doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan muhojirlar (agar bunday shaxslarga nisbatan zo'ravonlik faktlari tasdiqlangan bo'lsa).

REFERENCES

1. Abulxasan, D., Ishanxanova, G. A., Shotursunova, N. N., Shorustamova, K. Sh., Axrarov, A. Z., & Djabbarova, Z. A. (2021). *Mustaqil foydalanish uchun amaliy qo'llanma: Reabilitatsiya va moslashtirish markazlaridagi tazyiq va zo'ravonlik jabrlanuvchilariga birlamchi yordam ko'rsatish (tibbiy, psixologik, ijtimoiy va huquqiy) [Practical guide for independent use: Providing primary assistance (medical, psychological, social and legal) to victims of harassment and violence in rehabilitation and adaptation centers]*. Baktria Press.

2. Bourdieu, P. (1986). The forms of capital. In J. Richardson (Ed.), *Handbook of theory and research for the sociology of education* (pp. 241–258). Greenwood Press.

3. Bundesministerium für Familie, Senioren, Frauen und Jugend. (2020). *Aktionsprogramm gegen Gewalt an Frauen*. BMFSFJ.

4. Das, L. (2019). Cultural competence in working with survivors of gender-based violence in South Asia. *International Journal of Social Work*, 6(2), 34–51.

5. Ergashev, Sh. E. (2018). *Oilaviy nizolar va ularning jinoiy-huquqiy tartibga solinishi [Family conflicts and their criminal-legal regulation]*. TSUL Publ.
6. Eriksson, M. (2011). Defining and dealing with domestic violence in Sweden. *Violence Against Women*, 17(4), 476–496.
7. European Committee on Crime Problems. (1985). *Recommendation No. R (85)11 on the position of the victim in the framework of criminal law and procedure*. Council of Europe.
8. Opuz v. Turkey, No. 33401/02. (2009, June 9). European Court of Human Rights.
9. Harris, M., & Fallot, R. D. (2001). *Using trauma theory to design service systems*. Jossey-Bass.
10. Herman, J. L. (1992). Complex PTSD: A syndrome in survivors of prolonged and repeated trauma. *Journal of Traumatic Stress*, 5(3), 377–391.
11. Herman, J. L. (2015). *Trauma and recovery: The aftermath of violence—from domestic abuse to political terror*. Basic Books.
12. Kelly, L., & Radford, J. (1990). “Nothing really happened”: The invalidation of women’s experiences of sexual violence. *Critical Social Policy*, 10(30), 39–53.
13. “Sisters” Crisis Center. (2022). *Report 2020–2022*. <https://sisters-help.ru/about/reports>
14. Mizulina, Ye. B. (2006). *Torgovlya lyudmi i rabstvo v Rossii: mezhdunarodno-pravovoy aspekt [Human trafficking and slavery in Russia: International legal aspect]*. Yurist.
15. National Center on Domestic Violence, Trauma & Mental Health. (2018). *Creating trauma-informed services: Findings from a practice assessment*. NCDVTMH.
16. Saxovat JSC. (2023). *Pilot program monitoring report, 2021–2022*. Tashkent.
17. Schneider, H. J. (2001). *Viktimologie: Wissenschaft vom Verbrechensopfer*. Mohr Siebeck.
18. Shamsiyeva, S. X. (2020). *Gender tengligi va ayollar huquqlarini ta'minlash: Nazariya va amaliyot [Ensuring gender equality and women’s rights: Theory and practice]*. Adolat Publ.
19. Shestakov, D. A. (2003). *Semeynaya kriminologiya: Kriminofamilistika [Family criminology: Criminofamilistics]*. Yuridicheskiy tsentr Press.
20. Tarabrina, N. V. (2009). *Psixologiya posttravmaticheskogo stressa: teoriya i praktika [Psychology of post-traumatic stress: Theory and practice]*. Institute of Psychology, RAS.
21. United Nations General Assembly. (1985, November 29). *Declaration of Basic Principles of Justice for Victims of Crime and Abuse of Power*. Resolution 40/34.
22. United Nations General Assembly. (1993, December 20). *Declaration on the Elimination of Violence against Women*. Resolution 48/104. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/violence.shtml
23. Walker, L. E. (2009). *The battered woman syndrome*. Springer.
24. World Health Organization [WHO]. (2013). *Global and regional estimates of violence against women*.
25. World Health Organization [WHO]. (2021). *Violence against women: Prevalence estimates, 2018*.



26. Xakimova, Z. R. (2022). *Ayollarning jinoyat sodir etishining kriminologik xususiyatlari* [Criminological characteristics of women's offending] (Doctoral dissertation). Tashkent.

27. Yllo, K. (1993). Through a feminist lens: Gender, power and violence. In R. J. Gelles & D. R. Loseke (Eds.), *Current controversies on family violence* (pp. 47–62). Sage.

28. Yllo, K., & Bograd, M. (1988). *Feminist perspectives on wife abuse*. Sage Publications.

29. Zehr, H. (2002). *The little book of restorative justice*. Good Books.

30. Zehr, H. (2015). *Changing lenses: Restorative justice for our times*. Herald Press.

KRIMINOLOGIYA

VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 1-son